

TA'LIMDA INNOVATSION VISUAL VOSITALARDAN FOYDALANISH

Umarova Muhayyo Turg'unboy qizi

Farg'ona davlat universiteti

Amaliy ingliz tili kafedrası katta o'qituvchisi, PhD

+998904066402

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18779891>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tili darslarini yanada takomillashtirish va rivolantirish uchun qo'llaniladigan bir qancha metod va usullar bilan birga, o'qitish dagi eng samarali usullardan biri bo'lgan ko'rgazmalilik texnologiyasining samarasi haqida so'z yuritadi.

Kalit so'zlar: Vizuallik, audiovizuallik, ro'lli o'yinlar, ko'p funktsiyali ko'rgazmalilik, tasvir, rasm, grafik, proyektor, video, musiqa va h.k.

Abstract: It discusses the importance of visualization as well as the different methods based on visual aids which can help to improve the effectiveness of the classroom. This emphasizes the use of visual aids in teaching a second language acquisition.

Keywords: Visualization, demonstration, role play, multifunctional visualization, image, picture, music and so on.

Аннотация: В этой статье рассказывается об эффекте технологии наглядности, которая является одним из самых эффективных методов обучения, наряду с несколькими методами и приемами, используемыми для дальнейшего совершенствования и развития уроков английского языка

Ключевые слова: визуализация, аудиовизуальность, ролевые игры, многофункциональная наглядность, изображение, рисунок, графика, проектор, видео, музыка и т.д.

Ko'rgazmalilik (visualization) lotincha « *visualis* » so'zidan olingan bo'lib, ko'rib o'zlashtiriladigan degan ma'noni anglatadi.¹ Ko'rgazmalilik bu har qanday axborotni tasvir orqali namoyon etish bo'lib, bunda turli xil rasmlar, grafik yoki multimedia vositalar yordamida berilayotgan ma'lumotlarning tushunish va o'zlashtirish samarasini oshirishga xizmat qiladi. Ko'rgazmalilik ya'ni dars jarayonida foydalaniladigan visual vositalar ta'limning eng muhim didaktik prinsiplaridan biri hisoblanib, hozirgi kunda judayam samarali va ishonchli dars texnologiyasi hisoblanadi. Xususan, buyuk chex pedagogi Komenskiy tomonidan "Vizuallik-didaktikaning oltin qoidasi", - deya ta'riflanishining sababi, ko'rgazmalilik nafaqat ko'rib o'zlashtirish, balki insondagi barcha sezgi va hissiyotlarni qamragan ma'lumot olishning bir turidir.² Aniqroq qilib aytganda, visual vositalar orqali o'quvchining o'zlashtirayotgan ma'lumotiga doir visual tasavvuri paydo bo'ladi va bu ma'lumotni xotirada uzoq saqlab qolish, undan kundalik hayotda foydalanish jarayonini osonlashtiradi. Shuningdek, ko'rgazmalilik metodi o'rganishning hamma bosqichlarida zarur bo'lgan qobilyatlarni, xususan, o'quvchida diqqatni oshirish, tasavvurni boyitish va ongli o'zlashtirishni kamol toptirishga xizmat qiladi. Ko'rgazmalilik dars jarayonida qo'llaniladigan visual vositalar orqali amalga oshiriladi. Vizual vositalar (visual aids) bu dars jarayonida qo'llaniladigan ta'limiy vositalar bo'lib, talaba yoshlarni dars jarayoniga qiziqtirish, ularni o'rganishga ruhlantiradi. Visual vositalar o'rganish tajribasini faollashtirishga, uni yanada aniq va real qilishga xizmat qiladigan vositalar

¹ Oxford dictionary

² Я.А. Коменский. (1932). Буюк дидактика. Москва, Моравия 1932.

hisoblanadi. Buning isbot o'laroq ingliz metodisti Cuban (2001) o'tkazgan tadqiqotga ko'ra, ma'lumotlarning 1% ta'm bilish, 1,5% ushlab ko'rish, 3.5% hid bilish, 11% hid bilish va qolgan 83% esa ko'rish sezgisi orqali o'zlashtirilgan ekan. Shuningdek, insonlar o'qigan ma'lumotlarining 10%ini, eshitgan ma'lumotlarning 20%ini, ko'rgan bilimlarining 50%, ham ko'rib, ham eshitsalar 70%, va eng asosiysi ham ham aytib ham bajargan ma'lumotlarining 90%ini oson eslab qolishar ekan. ³ Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan visual vositalar ta'lim sifatini oshiribgina qolmay, o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarning samarali yodda saqlab qolishini ham osonlashtiradi. Bu xususda visual vositalar o'quvchilarga darsni o'zlashtirish uchun kerak bo'ladigan eng muhim yordamchi vosita hisoblanadi. Bejizga hind tilshunosi Jain (2004) tomonidan xitoyning mashhur maqoli, "One sighted is worth, a hundred words" keltirilmagan.⁴ Buning tarjimasi "bir ko'rish yuzlab so'zga teng" ma'nosini anglatib, o'zimizning "Ming eshitgandan, bir ko'rmoq - afzal" degan maqolimizga to'g'ri keladi. Bu kabi misollar ta'lim jarayonida visual vositalarning o'zni naqadar muhim ekanligini yana bir bor ta'kidlaydi.

Dars jarayonida vizual vositalardan foydalanishga doir bir qancha ko'rsatmalar mavjud. Vizual vositalardan kimlar uchun, qay maqsadda foydalanish qoidalariga ko'ra ularning vazifalari ham o'zgarib boradi. Vizual vositalarni dars jarayonida qo'llashdan avval qanday topshiriq uchun tanlanayotganiga e'tibor qaratish lozim. Shu vazifalarni hisobga olgan holda, quyidagi kategoriyalardan birini tanlab olish lozim.

1) O'qitish maqsadida – bu holatda o'qituvchilar vizual vositalarning turlari hamda vizual o'qitish metodlari bilan tanish bo'ladilar. Shunga qaramay, o'qituvchi tajribali bo'ladimi yoki yangi ustoz o'z talabalarining qiziqish va ehtiyojlaridan kelib chiqib, yangi g'oyalar ishlab chiqishi zarur. Darsda vizual vositalardan foydalanish o'rganish jarayonini real hayotga aylantirishi mumkin. Misol uchun, vizual vositalar orqali talabalarga mavzuni chuqurroq tahlil qilishga imkon beriladi. Talabalar vizual vositalarga murojaat qilgan holda, tushunmagan nuqtalarida savol berishlari ham mumkin. Bundan tashqari, vizual vositalarni yaratish, ular ustida topshiriqlar bajarish orqali o'zlari uchun yangi mavzuni kashf qila oladilar. Bu usulda ular ma'lumotlarni va mavzuga bo'lgan munosabatni uzoq muddatga eslab qola oladilar. Bu turdagi vizual vositalar ko'p hollarda ta'limiy xususiyatga ega bo'ladi.

2) Mashg'ulot o'tish maqsadida- bu holatda qo'llash ba'zida training maqsadida deb ham atalib, training so'zining ma'nosi sinfdan tashqari holatda biror bir bilim yoki ko'nikmani almashish uchun qo'llaniladi. Training ayrim bir muammoni oldini olishga oid ogohlik yoki mehnatga layoqatlik qobiliyatlarini rivojlantirishga mo'ljallangan. Bu maqsadda vizual vositalardan foydalanish texnikasi va tuzilishi rasmiy yoki o'ta norasmiy holatda bo'lishi mumkin. Agar mashg'ulot o'tuvchilar hukumat ishchilariga xizmat ko'rsatish kabi rasmiy bo'limlarda faoliyat olib borsalar, vizual texnikalar ancha rasmiy holatda qo'llaniladi. Aks holda, mashg'ulotlar biroz kasb-hunarga yo'naltirilgan bo'lsa, vizual vosita va texnikalarni joriy qilish ham norasmiy holatda, ochiq joylarda tashkillanishi mumkin.

3) Loyiha maqsadida- bu holatda jamoa bilan loyihalar qilishda vizual vositalardan foydalaniladi. Hozirda bu usulda vizual vositalaradn foydalanishning ahamiyati o'sib

³ Cuban, L. (2001). Computers in the Classroom, Cambridge, M.A. Harvard University Press. Retrieved from <http://www.webpages.uidaho.edu/mbolin/akerele-afolable.htm>

⁴ Jain,P..(2004); Educational Technology, Delhi Moujpur publication.

bormoqda. Bunga sabab, vizual vositalar hukumat ishchilar hamda mahalliy xalq o'rtasida muloqot olib borishga imkon beruvchi loyiha texnikasi bo'lib xizmat qilmoqda. Vizual vositalar hukumat loyihasi yoki dasturining ajralmas bir bo'lagi vazifasini bajarmoqda. Chunki, vizual vositalar orqali ma'lumot va qarorlarni ommaga ulashish, nima vazifalar qilish zarurligi va ularni qanday bajarish, shu bilan birga, nima samarali va muvaffaqiyatli ekanligini baholash va qaror qilish kabi ma'lumotlar ulashilmoqda. Vizual vositalar har qanday shaxsga o'z tanlovini yozib olish, izohlash hamda tahlil qilishga imkon beradi. Chunki, muloqot faqat so'zlar bilan emas, balki haqiqatni tasvirlaydigan rasmlar bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, vizual vositalarni tanlash chog'ida ikki muhim savolga javob topish zarur. **1) nima uchun**, ya'ni vizual vositalarning mos turini tanlash nimani o'qitishingizga ham bog'liq. Misol uchun, maktabda akademik fanlarni o'qitishda xaritalar, chiziqli diagrammalardan foydalanilgan ma'qul. Matematika o'qituvchilari esa odatda, ikki, uch o'lchovli geometrik shakllar bilan tanish bo'ladilar. Til o'qituvchilari ko'pincha sahna ko'rinish yoki ro'lli oyinlar bilan ishlaydilar. Va agar texnika yoki biror kasb-hunarga o'rgatish maqsadida bo'lsa, unda obyektlarning asli yoki tasvirdagi modeli kabi vizuallik turlaridan foydalanganlari ma'qul.

So'nggi bosqichda, **2)kim uchun**, ya'ni vizual vositalarning turlarini tanlashda eng muhim bo'lgan shaxs omili hisobga olinadi. Ya'ni, munosib vizual vosita tanlashdan oldin, o'quvchilarning vizuallik savodxonligi, vizual vositalarni qay tarzda tushuna olish qobiliyatlarini aniqlab olish zarur. Tadqiqotlarga ko'ra, ilmiy savodxonlik darajasi past bo'lgan mamlakat aholisi rasmlari ma'lumotlarni anglashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu sababli, vizual vositalardan nima maqsadda foydalanishdan qat'iy nazar, birinchi o'rinda shu xususda ma'lumot olish zarur. Dars jarayonida ham vizual vositalardan foydalanishdan avval, talabalar bilan suhbat olib borish va ular bilan aloqani yaxshilab olish darkor.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Callahan, J. F. (1988). Teaching in the Middle and Secondary School, Planning for Competence, United States of America: Macmillan Education LTD Publishers, PP.36.
2. Cuban, L. (2001). Computers in the Classroom, Cambridge, M.A. Harvard University Press. Retrieved from <http://www.webpages.uidaho.edu/mbolin/ak erele-afolable.htm>
3. Jain,P (2004); Educational Technology, Delhi Moujpur publication.
4. Shatri, K. & Buza, K. (2017). The Use of Visualization in Teaching and Learning Process for Developing Critical Thinking of Students] European Jour nal of Social Sciences Education and Research. No 9. p. 71-74
5. Безуглий, Д. (2014). Візуалізація як сучасна стратегія навчання. Фізико-математична освіта. Науковий журнал. № 1 (2). С. 5-11.
6. Я.А. Коменский. (1932). Буюк дидактика. Москва, Моравия 1932.